

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rinn tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

6 575,0
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

102,9 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
hajmining o'sish sur'atlari

101,3 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan
bozor xizmatlari hajmining o'sish
sur'atlari

3 497,7
ming so'm


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.


Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 575,0 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 599,7 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar – iste'molchilar holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning dekabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 116,2 mlrd. so'mga oshib 599,7 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun:

o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 73,4 mlrd. so'mga o'sgan va 468,8 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil XI - diskret (noyabr) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil XII – diskret (dekabr) oyining hajmi 10,8 mlrd. so'mga kamaygan.

Taqqoslash uchun:
2019 - yilning XI va XII – diskret oylari o'rtaсидаги farqi 70,8 mlrd. so'mni tashkil etган.



Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdonligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)**

Xizmatlar - jami	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
shu jumladan:	6 575,0	102,9
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	344,1	111,5
Moliyaviy xizmatlar	1267,1	124,2
Transport xizmatlari	1596,4	101,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1527,9	101,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	145,2	89,0
Savdo xizmatlari	1769,6	96,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	179,7	93,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	298,5	92,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	110,4	101,2
Ijara xizmatlari	138,7	106,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	211,3	92,1
Shaxsiy xizmatlar	197,3	92,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	160,2	127,7
Boshqa xizmatlar	156,5	83,8


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining tarkibi, % da
(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 26,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (24,3 %), moliyaviy xizmatlar (19,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (15,2 %) qayd etildi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulush ijara sohasidagi xizmatlar - 2,1 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari - 2,2 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar- 2,4 % hissasiga to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarining taqqoslanishi**



Yuqori o'sish me'morchilik sohasidagi xizmatlar (27,7 %), moliyaviy xizmatlar (24,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (11,5 %), ijara xizmatlari (6,1 %), transport xizmatlari (1,5 %), shuningdek sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari (1,2 % ga) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Boshqa xizmatlar hajmida sezilarli darajada (16,2 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (11,0 % ga), kompyuterni ta'mirlash xizmatlari (7,9 % ga), ta'lim sohasidagi xizmatlar (7,2 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (6,8 % ga), shaxsiy xizmatlar (6,6 % ga) da pasayish kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'r'in tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 26,9 % ni tashkil etib, bu 1 769,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da
(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)**

Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosidan,
jumladan, ularni ta'mirlash
xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari
(avtomobillar va
mototsikllar savdosidan
tashqari)



Avtomobillar
va mototsikllar savdosidan
tashqari chakana savdo
bo'yicha xizmatlar

Dastlabki ma'lumotlar

Joriy davrda avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarning ulushi 78,2 % ga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 14,5 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiylajmi hajmidagi ulushi 7,3 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 267,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 955,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiylajmi hajmidagi ulushi 19,3 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida ularni ulushi 16,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmning 311,4 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.




Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 24,2 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida ularni o'sish sur'ati 154,1 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadiqan haq hisobiqa ko'ra olinadi.



Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,5 % ni tashkil etadi.


Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,0 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,5 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKTning rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

AKTdan faol foydalanish keng qamrovli infratuzilmaga asoslangan bo'lib, u eng zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan, yuqori kadrlar salohiyatiga ega.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 344,1 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 111,5 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmdagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,6 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,7 % ni, boshqa aloqa xizmatlari - 0,9 % ni, nashriyotchilik xizmatlari - 1,5 % ni, shuningdek, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,3 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 298,5 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 92,8 % ni tashkil etdi.



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 89,0 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 145,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 2,2 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

73,5 %



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar



26,5 %


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 73,5 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 26,5 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 110,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiylajmida ularning ulushi 1,7 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarining daromad darajasi, didi va xohish-istiklariga qarab differensiyalanadi.

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



**Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
Xorazm viloyati	6 575,0	102,9	3 497,7
Urganch shahri	2349,4	104,7	16280,8
Xiva shahri	254,8	103,7	2746,2
<i>Tumanlar :</i>			
Bog'ot	364,2	103,7	2204,3
Gurlan	352,7	100,3	2373,3
Qo'shko'pir	353,6	106,2	2047,6
Urganch	577,5	86,2	2896,3
Hazorasp	483,6	100,3	2491,7
Tuproqqa'l'a	123,6	95,0	2230,4
Xonqa	452,7	102,8	2422,1
Xiva	331,3	114,9	2267,6
Shovot	363,5	102,1	2132,2
Yangiariq	308,3	105,2	2650,7
Yangibozor	259,8	109,8	2969,4

^{1) Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda}

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri (2349,4 mlrd. so'm), Urganch tumani (577,5 mlrd. so'm), Xazorasp tumanida (483,6 mlrd. so'm) qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoque.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-dekabr oylari da aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3497,7 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,3 % ni tashkil etdi.



Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel.: 62-22-4-65-16

16

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi